



ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI AGRAR SIYOSATINING MA'MURIY - HUQUQIY ASOSLARNI ISHLAB CHIQLISHI VA TATBIQ ETILISHI

K. Sulaymanov

*Farg'ona davlat universiteti
Magistratura bo'limi boshlig'i*

Hoshimova Mohira Nabijonovna

*Farg'ona davlat universiteti
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi istelosidan so'ng XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari, qishloq ho'jaligining ahvoriga oid ayrim ma'lumotlar berilgan. Rossiyaning Turkiston o'lkasidagi siyosatining iqtisodiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor Rossiyaning mintaqadagi agrar siyosatining sabablarini aniqlash va belgilab berishga qaratiladi. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi agrar siyosatining har tomonlama tarixiy-iqtisodiy tahlili mavjud emas, bu esa tadqiqotni tarix fani uchun bugungi kundagi dolzarbligini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *agrar munosabatlar, paxtachilik, aholini ko'chirish siyosati, ko'chmas mulk, yer solig'i, qishloq ho'jaligi, yer fondi.*

Turkistonda mustamlakachilik hukmronligini o'rnatgan Rus imperiyasi hukumatning mintaqa qishloq xo'jaligining imkoniyatlari va salohiyatini hukumatning yengil, oziq-ovqat va boshqa sanoat sohalarining paxta tolasi, ipak, teri, jun, meva-sabzavot kabi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirishga harakat qildi.

Mustamlaka boshqaruv idoralari mahalliy aholi quyi tabaqalarining yangi hokimiyat siyosati, yer-suv munosabatlarining o'zgartirilishi, vodiya rusiyzabon aholining ko'chirilishi, joriy etilishi rejalashtirilgan soliq va to'lovlarga qarshiligini sindirish niyatida mahalliy yirik yer egalari, boy savdogarlar, qozilar va musulmon peshvolarni o'z tomoniga jalb eta boshladi. Shu maqsadda aynan ular orasidan volost boshqaruvchilari, qozilar, qishloq oqsoqollari, harbiylar, rus-tuzem maktablari o'qituvchilari tayinlanar edi.

Ayni vaqtda Rossiya imperiyasining agrar siyosati negizida mintaqada joylashtirilgan rus qo'shinlari, mustamlakachilik boshqaruv idoralari moliyaviylashtirish hamda ko'chirib keltirilayotgan aholini moddiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlari tub aholidan undiriladigan soliqlar, to'lovlar bilan qoplash maqsadi yotgan edi. Bu holat oxir-oqibat nafaqat qishloq va ovullarda, balki shaharlar hududida ham mahalliy aholining moddiy ahvolini og'irlashtirgan omillardan biri bo'lgan hamda boshqa salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqargan edi.



Shuni o'ringda qayd etish zarurki, Turkiston, shu jumladan, Farg'ona vodiysida yer-suv munosabatlari azaldan rivojlangan bo'lib, XIX asrning birinchi yarmidayoq bu yerda bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan paxta tozalash, yog'-moy, ko'nchilik zavodlari, ipak, chit va boshqa turli gazlamalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud edi. Masalan, Farg'ona viloyatining Andijon uezdida aholi zichligi yuqori darajada bo'lib, bir oilaga 2 desyatina¹⁶⁴ yer, har kv. verstga 250 kishi to'g'ri kelgan. Zakaspiy viloyatining Mang'ishloq uezdida esa bir kv. verstga ¹⁶⁵ 0,3 kishi to'g'ri kelgan. Tadqiqotchilar ushbu ma'lumotlarni qiyoslash asosida Farg'ona viloyati-ning ishlab chiqarishdagi salohiyati yuqori ekanligini alohida ta'kidlaganlar ¹⁶⁶. Mavjud zavodlar va turli korxonalar egalarining aksariyati mahalliy bo'lmagan millatlarga mansub bo'lib, ular katta hajmdagi ekin maydonlariga ham ega bo'lgan.

Rossiya imperiyasi o'lkadagi agrar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqar ekan, bosh vazifa sifatida Farg'ona vodiysida yer-suv munosabatlarini mustamlakachilik manfaatlari yo'lida o'zgartirishni rejalashtirilgan ¹⁶⁷. Mustamlakachilikning tub mohiyatini davlat mulkari va zirotchilik shunday ifodalagandi: "Bu markaziy masalada uch urinish mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv "paxta" bo'lsa, ikkinchisida "sug'orish" va, nihoyat, uchinchisida uncha ko'zga tashlanib turmagan bo'lsa ham, aslida hammasidan muhimi – "ruslarni ko'chirib keltirib, o'rnashtirish" yozuvi turibdi" ¹⁶⁸. Demak, mustamlaka siyosati-ning asosiy yo'nalishlari aniq tarzda "paxta", "sug'orish", "ruslarni ko'chirib keltirish" kabi uch so'zda aniq ifodalangan.

Ilgari o'lkada yer mulkchiligining uchta shakli, ya'ni amlok (davlat, aniqrog'i, xon), xususiy mulkchilik (mulki-xur, mulki-ushr, mulki-xarosh), vaqf (masjid, madrasa, boshqa diniy muassasalarning mulki) mavjud bo'lgan. Amlok mulkchiligidagi yerlar tanho qilinishi amaliyoti natijasida zodagonlar, din peshvolari, lashkarboshilar, amaldorlarga in'om qilingan va asta-sekin xususiy mulk maqomiga o'tgan. Faqat vaqf yerlari sotilmas va garovga berilmas edi. Turkistonning boshqa viloyatlariga qaraganda Farg'ona viloyatida vaqf yerlarning salmog'i 6-7 foizga ko'proq edi ¹⁶⁹.

Farg'ona vodiysida dehqonchilik yerlarining aksariyati sug'oriladigan bo'lgani sababli turli suv inshootlarining qurilishi, ta'mirlanishi va ulardan foydalanish jamoat ishtirokida amalga oshirilgan. Lekin qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida og'ir qo'l

¹⁶⁴ desyatina = 1.09 ga (Ўзбек тилининг изохли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 319).

¹⁶⁵ Versta – bu 500 fatxom yoki 500 arshinga teng bo'lgan masofani o'lchash uchun ruscha birlik (bu hozirgi 1066,9 metrga to'g'ri keladi // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – Санкт-Петербург, 1892. – Т. VI. – С. 51–52).

¹⁶⁶ Сельскохозяйственный обзор Туркестанского края. Составитель В.И. Юфев. – Ташкент: Типография Штаба Туркестанского воен. округа, 1911. – С. 25.

¹⁶⁷ Курбонова Н.Н. Чоризмнинг Туркистондаги аграр сиёсати ва унга қарши кураш (Фарғона вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2011. – Б.17-19.

¹⁶⁸ Шамсутдинов Р.Т. (А. Исоқов билан ҳаммуаллифликда). Андижон тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Sharq, 2013. – Б. 161.

¹⁶⁹ Кауфман К.П. Проект Всеподданнейшего отчета Генерал-Адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Издание Военно-ученого комитета Главного штаба, 1885. – С. 256.



mehnati katta o'rin tutgan, zamonaviy texnika, asbob-uskunalar deyarli yo'q edi. Shuningdek, chorikorlar va mardikorlarning yer egalari bilan munosabatlari hamma vaqt ham adolatli bo'lmagan.

Ayni sharoitlarda yer-suv munosabatlari Rossiya imperiyasi sanoati ehtiyoj-lariga va ko'chirib keltirilayotgan aholini imtiyozli joylashtirishga moslash-tirildi. Birinchi navbatda, yirik yer egalarning ijtimoiy va siyosiy mavqeini pasaytirish maqsadida hamda mustamlakachilik rejalarini amalga oshirishni ko'zlab, yerlar davlat mulkiga aylantirildi. General-gubernator K.P. fon Kaufman qayd etganidek, katta vaqf yerlarida istiqomat qilgan dehqon aholisi o'lpon qoidasiga bo'ysundirildi ¹⁷⁰. 1880-yilda "Ijtimoiy o'lpon va yer tuzilishi to'g'risida" to'plam chiqarildi ¹⁷¹. Keyinroq, 1880–1890-yillarda, Rossiya imperiyasining mustamlakachi idoralari vaqf mulklarini "tartibga solish", qayta ro'yxatdan o'tkazish bahonasi bilan Farg'ona vodiysi va butun Turkistonda juda ko'p vaqflarni noqonuniy deb topdi, shunday yerlar, imoratlar mustamlaka ma'muriyati ixtiyoriga o'tdi. Ushbu yerlar ijarachi dehqonlarga berilgan va davlat ulardan yer solig'i olgan. Biroq sug'oriladigan dehqonchilikni ko'chirib keltirilgan dehqonlar ham, boshqaruv xizmatchilari ham mutlaqo bilmaganlar. Shunday bo'lsa-da, mahalliy qishloq aholisiga tegishli sug'oriladigan yerlar va yaylovlar tortib olinib, ko'chirib keltirilgan dehqonlar va kazaklarga berish ishlari avj olib bordi.

XIX-asrning oxiridan boshlab Rossiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy iqtisodiy loyihasi, shubhasiz, Amerika paxta navlarini o'zlashtirish va Rossiyaning to'qimachilik markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri temir yo'l aloqalarini ochish tufayli jadal rivojlanayotgan paxta loyihasiga aylandi. Urush davriga kelib, paxta ekiladigan sug'oriladigan maydonlar bir necha barobar ortdi.

Demak, 1888-1913 yillarda Farg'ona viloyatida 37,8 ming gektardan 304 ming gektarga, Samarqand viloyatida 8,7 ming gektardan paxta ekinlari yetishtirildi. 34,5 ming gektarga, Sirdaryo viloyati 28,2 ming gektardan 68,3 ming gektarga. O'rta Osiyoda umumiy paxta ekin maydonlari 1902-yildagi 195 ming gektardan 1912-yilda 385 ming gektarga ko'paydi. 1913-yilda bu yerda 684,7 ming tonna (42,8 million pudga yaqin) paxta xomashyosi ishlab chiqarilgan.

Rossiya Turkistoni bilan bir qatorda Buxoro va Xiva xonliklarida ham paxtachilik jadal rivojlandi. Demak, Buxoro va Xivada 1914 yilda paxta 140,2 ming gektar, 1915 yilda esa 152,6 ming gektar maydonni egallagan. Urushdan oldin Rossiyaga asosan buxor-yahudiy savdogarlari tomonidan berilgan paxta yetkazib berishda Buxoroning ulushi taxminan edi. 13%.

¹⁷⁰ Кауфман К.П. Проект всеподданейшего отчета по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. – Санкт-Петербург, Военная типография, 1885. – С. 257.

¹⁷¹ Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон Миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 25.



Podsho Rossiyasi qanday qilib bo'lsa ham, ko'proq paxta olish uchun, o'lkada paxta maydonlarini kengaytirish sohasida ba'zi bir choralarni ko'rdi ¹⁷². Boshqa ekinlar, xususan g'alla maydonlari kamaytirildi. Rossiyadan don keltirilib, paxtaga almashtiriladi.

Ko'chirib keltirib joylashtirilgan aholining ko'payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan. Toshkent hududi va o'lkaning Yangi Marg'ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlarida ham ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'ldi. O'lkadagi yirik shaharlar ikkiga; yangi-ma'muriyat, harbiy qismlar joylashgan va ko'chirib keltirilganlar yashaydigan qism hamda eski-mahalliy aholi vakillari yashaydigan qismlarga bo'lindi. Masalan, Toshkentdahi Bo'zsuv anhuri shahrni ikki qismga ajratgan chegara bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'lkani o'zlashtirish asnosida o'lkada juda ko'plab rus qishloqlari paydo bo'la boshladiki, biz ularni quyidagi ro'yxatdan ko'rishimiz mumkin:

1. Zaparojeskiy qishlog'i-1885 yilda asos solindi
2. Romanov qishlog'i- 1885 yil
3. Nadejdinskiy qishlog'i-1886 yil
4. Sretinsk qishlog'i-1886 yil
5. Nijne-volinsk qishlog'i-1889 yil
6. Nikolaev qishlog'i-1891 yil
7. Nikolsk qishlog'i-1893 yil
8. Obetovanny qishlog'i-1897 yil
9. Vyerxne-volinsk qishlog'i-1897 yil
10. Konnegvardeysk qishlog'i-1897 yil
11. Duxovsk qishlog'i -1901 yil
12. Spasskiy qishlog'i-1906 yil
13. Axmonqul qishlog'i-1909 yil
14. Sirdaryo qishlog'i-1909 yil
15. Veliko-Alekseevsk qishlog'i-1913 yil¹⁷³

¹⁷² 4 Razzaqov A. Melioratsiyaning xalq usullari, T.:1982.

Xulosa shundan iboratki, Rus hukumati Turkistonda, aholi posyolkalarini tashkil etishni ko'zda tutuvchi siyosatni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida o'lka hududlarini foydalanishga yaroqli yerga aylantirish, tabiiy boyliklar va xom-ashyo zaxiralarini yetkazib berishni bosh sabab qilib ko'rsatdi.

Turkiston zaminining turli-tuman boyliklarini egallashni, uni Rossiyaning xom-ashyo manbaiga va tayyor maxsulotlar bozoriga aylantirishni ko'zlab, paxtachilikni rivojlantirishni birinchi darajali vazifa qilib qo'ydi. Mustamlakachilar hukmronligi davrida paxta yakkahokimligining poydevori bunyod etildi. Shu bilan birga mustamlakachilik siyosatining yanada mustahkamlanishi Rossiyadan yuz minglab kishilarning ko'chirib keltirish imkoniyatini yaratdi. Ko'chirib keltirilgan rus aholisiga o'lka aholisining yeti uxlab tushiga ham kirmagan imkoniyat va sharoitlar berildi. Hotto, ularning ta'lim olishlari ham e'tibotdan chetda qolmadi

¹⁷³ Boltayev A. "Mirzacho'l-Jizzax: o'tmishi va buguni", T. "Fan" nashriyoti, 2007 yil, 86-87 betlar



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. desyatina = 1.09 ga (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 319).
2. Versta – bu 500 fatxom yoki 500 arshinga teng bo'lgan masofani o'lchash uchun ruscha birlik (bu hozirgi 1066,9 metrga to'g'ri keladi // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). – Санкт-Петербург, 1892. – Т. VI. – С. 51–52.
3. Сельскохозяйственный обзор Туркестанского края. Составитель В.И. Юфев. – Ташкент: Типография Штаба Туркестанского воен. округа, 1911. – С. 25.
4. Қурбонова Н.Н. Чоризмнинг Туркистондаги аграр сиёсати ва унга қарши кураш (Фарғона вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2011. – Б.17-19.
5. Шамсутдинов Р.Т. (А. Исоқов билан ҳаммуаллифликда). Андижон тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Sharq, 2013. – Б. 161.
6. Кауфман К.П. Проект Всеподданнейшего отчета Генерал-Адъютанта К.П. фон-Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 г. – Санкт-Петербург: Издание Военно-ученого комитета Главного штаба, 1885. – С. 256.
7. Кауфман К.П. Проект всеподданейшего отчета по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. – Санкт-Петербург, Военная типография, 1885. – С. 257.
8. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон Миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 25.
9. Razzaqov A. Melioratsiyaning xalq usullari, T.:1982.
10. Boltayev A. “Mirzacho'l-Jizzax: o'tmishi va buguni”, T. “Fan” nashriyoti, 2007 yil, 86-87 betlar